

KO'CHMA KUTUBXONALAR VA YOSHLAR MA'NAVIYATI

Tursunova Mashhura

*Namangan viloyati Nodirabegim axborot kutubxona
markazi yig'ma elektron mutaxassisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ko'chma kutubxonalar faoliyatining yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Mutolaa madaniyatini rivojlantirish, kitobni yoshlar hayotiga yaqinlashtirish, chekka hududlarda yashovchi yoshlarga ilm-fan va badiiy adabiyot namunalarini yetkazish ko'chma kutubxonalar faoliyatining asosiy maqsadlari sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, ko'chma kutubxonalar orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash jarayonlari tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar asosida ushbu tashabbuslarning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlari: *Ko'chma kutubxona, yoshlar ma'naviyati, mutolaa madaniyati, kitobxonlik, intellektual salohiyat, chekka hududlar, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, zamonaviy kutubxonachilik, ijtimoiy tashabbus.*

Аннотация: *В данной статье освещается роль и значение деятельности передвижных библиотек в формировании духовности молодежи. Основными целями их работы определены развитие культуры чтения, приближение книги к жизни молодежи, доставка образцов научной и художественной литературы молодежи, проживающей в отдалённых районах. Также анализируются процессы повышения интеллектуального потенциала молодежи, их воспитание в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям посредством передвижных библиотек. На основе международного опыта и реализуемых в Узбекистане проектов раскрывается социальная и духовная значимость этих инициатив.*

Ключевые слова: *передвижная библиотека, духовность молодежи, культура чтения, книголюбие, интеллектуальный потенциал, отдалённые районы, национальные ценности, духовное воспитание, современное библиотековедение, социальная инициатива.*

Abstract: *This article highlights the role and significance of mobile libraries in shaping the spirituality of youth. The main objectives of their activities are defined as the development of reading culture, bringing books closer to the lives of young people, and delivering samples of scientific and artistic literature to youth living in remote areas. The article also analyzes the processes of enhancing young people's intellectual potential and educating them in the spirit of respect for national and universal values through mobile libraries. Based on international experience and projects implemented in Uzbekistan, the social and spiritual importance of these initiatives is revealed.*

Keywords: *mobile library, youth spirituality, reading culture, readership, intellectual potential, remote areas, national values, spiritual education, modern librarianship, social initiative.*

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni kitobga oshno etish, intellektual salohiyatini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kitob inson tafakkurining quvvati, millat ma'naviyatining asosiy tayanchi sifatida qadrlanadi.

Shu bois yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib etish va ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda yashayotgan yoshlarni kitob bilan ta'minlash masalasi eng muhim masalalardan biridir. Chunki barcha joyda ham zamonaviy kutubxonalar mavjud emas. Shu nuqtai nazardan ko'chma kutubxonalar tashabbusi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'chma kutubxonalar yoshlarni ilm-fanga, adabiyotga va san'atga qiziqtirishning samarali vositasidir. Ular orqali kitoblar, turli o'quv qo'llanmalar, badiiy va ilmiy adabiyotlar yoshlarga yetkaziladi. Bu tashabbus nafaqat kitobni targ'ib etish balki yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ma'naviy dunyosini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki kitobxonlik insonni tafakkurli, maqsadli, bilimli qiladi va uning dunyoqarashini boyitadi.

Ko'chma kutubxonalar orqali yoshlar vaqtlarini mazmunli o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tashabbus ularni turli zararli illatlardan asrashda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'sh vaqtni foydali faoliyat bilan band etish yoshlarni ma'naviy va intellektual jihatdan shakllantiradi. Ayniqsa, bugungi kunda axborot oqimining cheksizligi sharoitida yoshlarning diqqatini kitobga jalb etish nihoyatda muhimdir. Ko'chma kutubxonalar aynan shu vazifani bajaradi va yoshlarga sog'lom muhit yaratadi.

Ko'chma kutubxonalar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ko'p qirrali ahamiyatga ega. Birinchidan, ular chekka hududlardagi kitob yetishmovchiligi muammosini hal qiladi. Ikkinchidan, yoshlarni ilmiy izlanishlarga undaydi. Uchinchi tomondan, ko'chma kutubxonalar oilaviy kitobxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki ko'chma kutubxonalardan faqat yoshlar emas, balki kattalar ham foydalanadilar. Natijada butun oilada mutolaa muhiti shakllanadi. Bu esa yoshlar uchun katta ibrat maktabidir.

Yurtimizda so'nggi yillarda ko'plab loyihalar amalga oshirilib, yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Prezident qarorlari va farmonlari asosida "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish" bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu tashabbuslar natijasida turli hududlarda ko'chma kutubxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, maktablarda, oliygohlarda va mahallalarda tashkil etilgan ko'chma kutubxonalar yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini orttirmoqda.

Ko'chma kutubxonalar yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi Ular orqali o'zbek xalqining boy adabiy merosi asrlar davomida yaratilgan badiiy durdonalar yosh avlodga yetkaziladi Shu orqali ular o'z xalqining tarixini an'ana va qadriyatlarini chuqurroq anglaydilar Kitoblar orqali yoshlar buyuk ajdodlarimizning asarlarini o'qib ulardan saboq oladilar Zero milliy qadriyatlarni asrash va targ'ib etishda kitob eng muhim vositadir

Ko'chma kutubxonalar faoliyatining yana bir ahamiyatli jihat shundaki ular yoshlarni global dunyoqarashga ega bo'lishiga ham xizmat qiladi Chunki ko'chma kutubxonalar faqat milliy adabiyot bilan chegaralanib qolmay balki jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini ham yoshlar e'tiboriga havola etadi Natijada yoshlar boshqa xalqlar madaniyatini ham o'rganadilar ular bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni erkin fikrlovchi yetuk shaxslar etib tarbiyalaydi

Bugungi axborot texnologiyalari asrida elektron ko'chma kutubxonalar ham alohida ahamiyat kasb etmoqda Mobil ilovalar yordamida tashkil etilgan virtual kutubxonalar yoshlarning bilim olishiga yanada keng imkoniyat yaratmoqda Ammo shunga qaramay an'anaviy kitobning qadri hech qachon yo'qolmaydi Chunki kitob qo'lda ushlab o'qilganda inson ruhiyatiga yanada chuqurroq ta'sir ko'rsatadi Shu bois ko'chma kutubxonalar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda faoliyat olib borishi eng maqbul yo'ldir

Ko'chma kutubxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda nafaqat bosma kitoblarni balki elektron shakldagi adabiyotlarni ham yoshlarga yetkazish imkoniyati mavjud. Planshet, elektron kitob o'quvchi qurilmalar yoki mobil telefonlarga moslashtirilgan dasturlar orqali ko'chma kutubxonalarning xizmat doirasini kengaytirish mumkin. Bu esa ayniqsa raqamli avlod — Z avlodi uchun muhim, chunki ular ma'lumotni ko'proq raqamli platformalar orqali qabul qilishga odatlangan. Shunday qilib, ko'chma kutubxonalar an'anaviy mutolaa bilan birga raqamli o'qish madaniyatini ham targ'ib etadi.

Ko'chma kutubxonalar faqatgina kitob tarqatish yoki kitobxonlikni targ'ib qilish bilan chegaralanmaydi. Ular yoshlar bilan bevosita muloqot qilish, turli ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar, ijodiy uchrashuvlar, adabiy tanlovlar va mahorat darslari o'tkazish uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Shu tarzda kutubxona nafaqat bilim manbai balki yoshlar uchun muloqot maydoni va ijtimoiy faoliyat markaziga aylanadi. Ko'plab yoshlar uchun kitobni faqat o'qish emas, balki u haqida fikr almashish, mualliflar bilan uchrashish, yangi do'stlar orttirish jarayoni ham qiziqarli hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ko'chma kutubxonalar orqali yoshlar milliy o'zlikni anglashga, tarixiy merosni o'rganishga kengroq jalb qilinadi. Masalan, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari yoki milliy tariximizga oid kitoblarni chekka hududlarga yetkazish orqali yoshlar orasida milliy g'urur va tarixiy xotira

mustahkamlanadi. Shu bilan birga, dunyo adabiyotining sara namunalari ham ularning dunyoqarashini kengaytiradi, turli xalqlar madaniyatini bilishga qiziqish uyg'otadi.

Ko'chma kutubxonalarining ijtimoiy ahamiyatini aytganda, ularning imkoniyati faqat yoshlar bilan chegaralanmaydi. Ular kattalar, ayollar, keksalar uchun ham manfaati katta bo'lgan tashabbusdir. Masalan, uy bekalari yoki qishloq joylarda ishlayotgan ayollar uchun mutolaa ko'pincha imkoniyati cheklangan soha bo'lib qoladi. Ko'chma kutubxonalar ularning ham kitob bilan tanishishiga, farzandlari bilan birgalikda mutolaa qilishlariga sharoit yaratadi. Bu esa butun oilaning ma'naviy muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, ko'chma kutubxonalar ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, Hindistonda kitob tashuvchi maxsus avtobuslar uzoq qishloqlarga borib xizmat ko'rsatadi.

Skandinaviya davlatlarida esa hatto qayiq kutubxonalar tashkil etilgan bo'lib, ular orollarda yashovchi aholiga xizmat qiladi. Bunday tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish ko'chma kutubxonalar faoliyatini yanada samarali qiladi.

O'zbekistonda ham shunday tajribalarni joriy etish orqali ularning imkoniyatlari kengayishi mumkin.

Eng muhimi, ko'chma kutubxonalar yoshlarni bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga o'rgatadi. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning asosiy vaqtini egallab olayotgani sir emas. Kitob esa ularga fikrlashni, hayotiy vaziyatlarga ongli yondashishni, mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatadi.

Shu ma'noda ko'chma kutubxonalar yoshlarni virtual olamdan real bilim va ma'rifat manbalariga qaytarishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Ko'chma kutubxonalar nafaqat bilim manbai balki yoshlarni ijtimoiy faol bo'lishga ham undaydi. Ular turli tadbirlar ijodiy uchrashuvlar musobaqalar o'tkazib yoshlarni o'z iste'dodini namoyon etishga ruhlantiradi.

Shu orqali yoshlar o'z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanadilar. Ko'chma kutubxonalar ijtimoiy hayotga integratsiya bo'lishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ko'chma kutubxonalar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ular yoshlarni kitobga oshno etadi mutolaa madaniyatini rivojlantiradi milliy qadriyatlarni asrash va targ'ib qilishga xizmat qiladi chekka hududlardagi kitob yetishmovchiligi muammosini hal qiladi va yoshlarni ilmiy izlanishlarga undaydi.

Shuningdek ko'chma kutubxonalar yoshlarni zararli illatlardan asraydi ularni ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Shu bois bugungi kunda ko'chma kutubxonalar nafaqat ta'lim tizimi balki butun jamiyat hayotida muhim ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat kasb etmoqda.

Ularni keng rivojlantirish esa yoshlarimizning kelajagi yurtimizning taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi PQ-3271-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4354-son qarori.
4. Ashirboyev S. Kutubxonashunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
5. Xayrullaev M. Yoshlar ma'naviyati va kitobxonlik madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. UNESCO. Mobile Libraries: Bringing Knowledge to Rural Communities. – Paris, 2018.
7. Rahmonova N. Kitobxonlik va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. O'zbekiston Milliy kutubxonasi ma'lumotlari: www.natlib.uz